IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

IFODA STILIZATSIYASI VA TASVIR ANALOGIYASI

Ibragimova Ra’no Isakovna
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va
agritexnologiyalar instituti prorektori,
filologiya fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillari o‘zbek adabiyoti rivoji, xususan Qoraqalpog‘istonda o‘zbek tilida ijod qilayotgan ijodkorlarning asarlari tahlil qilinadi va mustaqillik yillaridagi asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari, mavzulari haqida, o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘zlarining turli janrlardagi asarlari bilan hissa qo‘shayotganligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, badiiy uslub, timsol, ilohiy muhabbat, ruhiyat, adabiy jarayon, vasfiya, qalb kechinma, bag‘ishlov, ramziy ma’no.

Har bir ijodkor adabiy mahorati hayot haqiqatini o‘ziga xos tasvir yo‘sinida aks ettirishi, tashbeh qo‘llash iqtidori, voqelikni estetik tarzda baholash mezonlari bilan o‘lchanadi. Joriy ham badiiy uslub milliy hamda individual tafovutini belgilaydi. Mental xususiyatlar aslida jo‘g‘rofiy makon va zamon bilan bog‘liq, unda jamiyat ideali va did-saviya amaldagi ko‘rinishi bo‘y ko‘rsatadi. Markazlashgan madaniy omil mintaqa adabiy hayotida ifoda stilizatsiyasi kuchayishiga mustahkam zamin hozirlaydi. Unda qadriyaviy nuqtalar kesishuvi adabiy aloqa quvvat-hofizasidan oziqlanadi.

Adabiyot har doim zamon va davr bilan hamnafas o‘zgarib boradi. Har bir davrning o‘z dardi o‘z mavzulari bo‘ladi. Bu mavzular ijtimoiy hayot bilan bog‘liq

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

holda adabiy jarayonda o‘ziga xos tarzda aks etib turadi. Badiiy adabiyot insonlar qalbiga yetib boradi, ularning qalblarini zabt etadi, diliga taskin beradi. Aynan mana shu jihatlariga ko‘ra adabiyot chegara bilmaydi, u qaysi xalq vakili bo‘lishidan qat`i nazar o‘z o‘quvchisini topib, ularning qalbida obrazlar misolida yashaydi. So‘z qudrati esa, albatta, so‘zlarni mahorat bilan qo‘llay olgandagina o‘z bo‘y-bastini namoyon qiladi. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan o‘zbek adabiyoti namoyondasi, o‘zining serqirra ijodi bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lgan jurnalist va shoira Ra`no Raxmonberdi qizidir. Shoira ijodi tom ma`noda Mustaqillik yillarida o‘zining boy tarovati bilan namoyon bo‘lmoqda. Bu qutlug‘ kunlarning xalqimiz hayotidagi ta`sirini ko‘rib, bilib, anglab turib qalb kechinmalari va tug‘yonlarini turli janrlarda aks ettira boshladi. Bu davr har bir xalq farzandi uchun dilidagi his-tuyg‘ularini etkazib berish, ochiq-oshkor bayon qilish uchun imkoniyat berdi. Ayni mana shu imkoniyatdan oqilona foydalangan so‘z zargari ko‘ngil kechinmalarini vasfiyalari va she`riy misralar mazmuniga singdirgan.

Keyingi davrda o‘zbek she`riyatida ko‘ngil kechinmalarini tasvirlash yetakchi o‘ringa chiqdi. Ichki sezimlar, ruhiyatda kechgan o‘y-xayollar olami, o‘zligini izlayotgan “men” tasvirlari adabiyotning asli ekanligi oydinlashib bormoqda. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, Ra`no Raxmonberdi qizi ijodi inson ruhiyati, ichki kechinmalariga bog‘liq ko‘pgina asarlari bilan diqqatga sazovordir. Ba`zi she`rlarida vatanni ta`rif-u tavsif qilsa, bazilarida, muhabbatdan sirlashadi, ba`zan do‘stlarga dil daftarini ochsa, ba`zan zamonu zaminning dardu alamlarini aks ettiradi, ba`zan esa falsafiy mushohadalarga boy dostonlar bitayotgan shoir va jurnalist sifatidagi bebaho badiiy mahoratidan hayratlanamiz. Uning ijodini “Tola nur”(1994 yil), “Kechir ona yer”(1995 yil), “Tirilish”(1999 yil), “Ruh manzaralari”(2003 yil), “Iqror”(2009 yil), “Asr vaqti” qissasi, “Vaqf o‘rik” (2013 yil) to‘plamlari bezaydi. Bu ijod namunalarida

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

falsafiy-intellektual ohang, yangicha estetik idrok va mantiqiy tafakkur teranligi qabarib ko‘rinadi.

Ra`no Raxmonberdi qizining mustaqillik yillaridagi jo‘shqin ijodiy faoliyati, ijodiy o‘ziga xosligi, mavzu va mazmun rang-barangligi, “Ruh manzaralari” kitobiga kiritilgan vasfiyalar, hikoyatlar, bag‘ishlovlar haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo vasfiya so‘ziga e`tibor qaratamiz. “O’zbek tilining izohli lug‘ati”da “vasf” so‘zi, maqtov, e`tirof ma`nolarining anglatishi ko‘rsatilgan. İjtimoiy tarmoq materiallarida “vasfiya”- arabcha so‘z bo‘lib, maqtashga, e`zozlashga, e`tirofga munosib - ma`nolarini anglatishi haqida ma`lumot berilgan. Shuningdek, vasfiya-Ollohni madh etish, bag‘ishlov[1] ma`nolarini bildirishi yozilgan.

Ra`no Raxmonberdi qizi “Ruh manzaralari” kitobining boshlanishini Vasfiyalar “Ko‘ngil saltanati” deb nomlar ekan, “Ko‘ngil haqida ko‘ngilning qalamga izhorlari” aks ettirilishi haqidagi kechinmalarini aytib o‘tadi va shunday yozadi: “Har tomonlama etuk insonni tarbiyalashda uning ruhiyatini o‘rganish va tarbiya ishlarini shu asosda yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi”[2].

Demak, muallifning vasfiyalarini (bag‘ishlovlarini) o‘qir ekansiz, bu misralarning qalbingizga naqadar yaqin ekanligini anglay olgandek bo‘lasiz, yozuvchiga “ko‘ngil ichidagi ko‘ngil bilan so‘zlashmoq saodati, mas`uliyatini” teran his qilasiz. Muallif o‘zining chuqur ma`noli, sermazmun, rang-barang mavzudagi ijodi bilan qalbingizdan o‘rin egallaydi.

“Ushbu vasfiya-bayonnoma ko‘ngil, ruh ifori, inson maqomiga ko‘targan odamning ichki kechinmalaridan bir chimdim, xolos. Zero, inson tinimsiz tafakkur, tug‘yon, muhabbat birla tirikdir”[3]-deya ta`rif beradi muallif. Kitobdagi har bir fikr

[1] www.Ziyonet
[2]. Раҳмонберди қизи Р. Руҳ манзаралари. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти, 2003 й. 3-б
[3] Раҳмонберди қизи Р. Руҳ манзаралари. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти, 2003 й. 3-б

insonning ruhiy kechmishlarini aks ettiradi, o‘z-o‘zi bilan suhbatlashib o‘zligini anglashiga yordam beradi. “Dedi: Allohdan qo‘rqmagandan qo‘rq”. Sening muqaddas sajdagohingdan tongan insonning qismati ham o‘zingga havola. Birovni yana birovga xor qilgan ham o‘zing, iloho xorlikda quvvat beruvchi ham o‘zingdirsan”[4]. Uning qalbida har doim Ollohga ishonch, e`tiqod zavqi ufurib turadi, bu hissiyotni har bir insonning qalbiga jo qilish ushbu “ko‘ngil saltanati”ning asosiy mazmunini tashkil qiladi. İnsonlar qalbiga yaxshilik urug‘ini ekib tarbiyalash, ishonch tiyg‘usining naqadar kuchli tuyg‘u ekanligini ko‘rsatish barobarda asarlari xalqning ko‘nglidan chuqur joy oldi, deyish mumkin. Bu hislarini biz shoiraning ushbu kitobga bitilgan nomalaridan uqib olishimiz mumkin. Yana shunday yozadi, “Dedi: dunyoning bir pulga qimmatligini bilib turib ham, unga bor-budingni sarflashga rozisan. Nahotki, bor-buding shunchalar qimmatsiz bo‘lsa?!

Fikring yorishgan damlarda bir necha lahzaga bo‘lsa-da, xaloslikka chiqasan. Yo‘qlik dunyosida yo‘qolib ketish lazzati ham uzoqqa cho‘zilmaydi. Keyin izlagan narsangning nomini ham, mohiyatini ham faromush qilgancha tosh qotasan.

Nechun ko‘zimizni yoshli yaratding,
Tahur nasib berib, toshli yaratding.
Qanoatni qilning qirq hissasicha
Nafs ajdarin ikki boshli yaratding?
Ey boshlar qo‘lida bo‘lgan ulug‘ zot,
Ne sirkim qatrada zaharu, hayot?”[5]

Misralar mazmuniga singdirilgan katta asriy muammo bu insonlarning o‘z nafslarini jilovlay olmay, har qanday azobu uqubatlarga duch kelish holatlari juda obrazli tarzda aks ettirlgan. Mumtoz adabiyotda tosh-sabr, bardosh ma`nosini anglatsa,

[4] Ўша асар 4-б
[5] Ўша асар 5-б

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

ikki boshli ajdar bu ramziy ma`noda nafs girdobi, ochko‘zlik kabi salbiy ma`nolarini aks ettirgan. Haqiqatan, inson o‘z ojizligi va ishonchsizligi, ba`zan esa loqaydligi bilan mana shu tuyg‘ularga qul bo‘lib, butun bir jamiyatni ostun-ustun qilishi, pokiza insonlarning qalbini umidsizlik botqog‘iga botirishi chin haqiqatdir. Bu mavzu har bir davrda o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, ijod namunalariga e`tibor qaratar ekanmiz biz tahlilga tortayotgan ushbu bo‘limda insonning olijanob fazilatlari keng targ‘ib qilingan, insonning eng avvalo odamiyligini ulug‘lovchi mavzular ham ko‘pchilikni tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Ra`no Rahmonberdi qizining ijodidan o‘rin olgan quyidagi hikoyatda ham jamiyatimizda bo‘y ko‘rsatayotgan kibr, manmanmanlik, nafs balosi qoralanib, badiiy timsolda odamiylik fazilatlari ulug‘lanadi: ikki birodar biri davlatmand, biri faqir, davlatmandda kibr kuchli u faqir do‘stini, uning go‘zal insoniy fazilatini tushunmaydi, boylik orttirish, maishat bilan ovora, faqir esa undan do‘stona xabar olgani keladi, lekin do‘sti uzoq safarga ketgan. Shunda faqir: “Men uni sog‘inib kelaman, u esa men bilan xayrlashishni ham ep ko‘rmaydi”. Shu zahoti o‘zidan ranjidi: “Tamagirlik qildim”[6].

Birodari va o‘zi o‘rtasidagi dovon o‘tib bo‘lmas darajada kengayib ketganini ilk bor his qildi, o‘z holiga va birodari holiga yig‘lab, Yaratgandan gunohlarini tiladi.

O’ldirib ko‘ngilning orzularini,
Haqiqat mulkiga so‘qmoq och dilim.
Dunyo ulug‘ go‘rdir, bir kun yutajak,
Qalbdagi qabrga qochgin, ey dilim…”[7]

Hikoyat juda qisqa, lekin unda juda katta ma`nolar, davrimizning eng katta mavzularidan biri yorqin gavdalanib turibdi. İnsonlar orasidagi, do‘st-birodarlar orasidagi, yaqin qarindoshlar orasidagi munosabatlarning qay holga kelib qolganligi

[6] Раҳмонберди қизи Р. Руҳ манзаралари. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти, 2003 й. 10-б
[7] Ўша асар 12-б

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

juda oddiy va ta`sirli tarzda ochib beriladi. Bu dunyoning naqadar yovuz go‘r kabi to‘ymasligini, u hammani, hamma narsani yutajagini insonlarga yana bir karra ta`kidlamoqchidek, go‘yo. Qalbdagi qabr, haqiqatning ming chandon haqqoniy tasviri sifatida ifodalanadi. Har birimizning qalbimizdagi qabrlarda mavjud bo‘lgan sir-sinoat, his-tuyg‘ularning aniq ifodasi mohirona aks ettirlgan. Bu kabi haqiqatlikni, haqqoniy dil navolarini shoira mustaqillik yillarida to‘lib-toshib, misralar, hikoyalar mazmuniga singdirgan.

Muallifning har bir aytgan jumlalarining ma`nolari juda chuqur, juda teran. Hatto uni har kim ham tushuna olavermas. Mana ushbu misralar: “Adashganimni his qilib ham yana ichkarilamoqdaman. Ey mayi tahur, ey mayi zahr, ey qismati hajr, ey soqiyi jabr! Pushaymonlikdan foyda yo‘qligini bilib turib ham qo‘limni o‘tmish yoqasidan tortib ololmasam?! O’tmish bugunim, kelajagimni yo‘qqa chiqarish darajasida kuchli bo‘lsa?

Bilib ichdim, bilmay ichdim, yana ichgum suz soqiy,
Million yillik xumlaringning tamg‘asini buz, soqiy,
Ming shukrki, loyiq ko‘rib dardu alam beribsan,
Dam shu damdir, g‘animatdir, ostonada kuz soqiy.”[8]

Misralar tilga kirsa, unda pushaymonlik, balki tarixiy o‘tmish kunlarimiz haqidadir, balki millat taraqqiyotiga g‘ov bo‘lganlarning qora ishlari sabab qurbon bo‘lgan ilm ahli haqidadir. Muallif pushaymonlik, may, kuz obrazlari orqali hayotimiz shunchalar g‘animatligini, har bir damning qadriga etish va unumli foydalanib, xalq uchun xizmat qilish kerakligi, aks holda kech bo‘lishini uqtirmoqchidir. Fikrlar qay darajada ta`sirli bo‘lishi va mazmunan teranligini tahlil qilish jarayonida nasrdagi qofiyaga (saj`) ham e`tibor qaratmoqchimiz. Saj` – qofiyali proza. O’zbek xalq

[8]. Раҳмонберди қизи Р. Руҳ манзаралари. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти, 2003 й. 9-б

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

og‘zaki ijodi uchun xarakterli xususiyatlardan biridir[9]-deb ta`rif beriladi lug‘atda. Ey mayi tahur, ey mayi zahr, ey qismati hajr, ey soqiyi jabr! – bu erda *tahur*, *zahr*, *hajr*, *jabr* so‘zlari ham mazmunan, ham ohang jihatdan kitobxon e`tiborini tortadigan darajada tanlab olingan va tasvir vositasi sifatida qo‘llanilib, ozor, g‘am ma`nolarini kuchaytirsa, *ey* so‘zining takrori ham ushbu gapning yanada ta`sirli chiqishiga katta hissa qo‘shgan. Bu esa muallifning so‘z tanlash mas`uliyati va mahoratining naqadar yuqori ekanligidan darak beradi.

Shoiraning mustaqillik yillaridagi ilk asarlaridan biri “Tola nur” nomli to‘plamidir. Bu to‘plamda shoiraning mustaqillik haqidagi ilk fikr-mulohazalari go‘zal tashbehlarda aks ettiriladi. Shoira ijodi haqida M.Alimboeva juda to‘liq ma`lumot beradi. “Inson o‘ziga berilgan umr va hayot ne`matlarida ilohiy muhabbat, ishq timsolini ko‘ra olsin.

Buni sezmas ekan, unda yashagani yolg‘on:

İshqsiz dunyolarga kelganim yolg‘on,
Bu yorug‘ jahonda yurganim yolg‘on.
Rostakam tug‘ilib yashashim zarur,
Yo‘qsa, yashaganim, o‘lganim yolg‘on.
Hali men yurakni parcha-parchalab,
İshqning yo‘llariga gulday socharman.
Chaqmoq chaqqan sari vujudim titrar,
Jaladay shovullab, selday tosharman.
Ishqsiz dunyolarga kelganim yolg‘on.

[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва. Рус тили, 1981-й. 10-б

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

Ushbu kitobga so‘zboshi yozgan O’zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojieva to‘g‘ri ta`kidlab o‘tganidek: “Ra`noning dardlari, tuyg‘ulari jonsarak, kuygunchak dilning qalamgagina aytgan izhori, mayin bir shivirlashi”[10]dir.

Biz tahlilga tortgan ushbu asarlar muallifning mustaqillik yillaridagi ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Maqolalar, lavhalar, hikoyalar xalqning yangilanish davridagi o‘y hayollarini, ijtimoiy jarayonlardagi tub o‘zgarishlarni aks ettiradi, davr qahramoni siymosida ochiq oshkoralik jihatlari namoyon bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Rahmonberdi qizi R. Ruh manzaralari. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2003 y. 9-10-b
2. O‘zbek tilining izohli lug’ati. Moskva. Rus tili, 1981-y. 10-b
3. www.Ziyonet

[10] Ўша асар. 7-б